

**JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI TASHKIL ETISHDA
DAVLATIMIZNING YOSHLARGA YARATIB BERAYOTGAN KENG
IMKONIYATLARI.**

*Xolov Jasur Chorshamiyevivh.
Oltinsoy tumani 10-sonli umumiy o'rta ta'lim
maktabi Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi:*

Ma'lumki har qanday davlat o'z farzandlarini jismonan sog'lom qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib bu borada bor kuch g'ayratini ayamaydi. Jismoniy tarbiya esa yoshlarda tarbiyaning barcha tarkibiy qisimlarini yanada shakllantirishga asosiy zamin yaratadi. Zero dono xalqimiz "Sog'lom tanada - sog' aql" deb bejiz aytishmagan. Ushbu jihatlarni inobatga olib ayni damda mamlakatimizda jismoniy tarbiyaga yanada yuksak e'tibor berilib bu boradagi ishlar taxsinga loyiq bo'lmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz sporti jahonda o'z o'rniga ega hisoblanadi. Bu yutuqlar negizida yoshlarimizni sport va jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanishi va qobiliyatiga qarab yo'naltirish hamda shart-sharoitlar yaratilayotganligidir. Ushbu fikrlarimiz isboti sifatida davlatimiz tamonidan chiqarilayotgan qaror va farmonlar so'zimizning dalili bo'la oladi. Shu o'rinda aytish lozimki so'nggi yillarda mamlakatimizda jismoniy tarbiyaga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar imzolandi. Shunday ekan hurmatli Prezidentimizning jismoniy tarbiyaga bo'lgan e'tibori va chiqarilgan qaror va farmonlariga to'xtalib o'tishni joizdir.

2017 yil 3 iyunda "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 5-martda "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonning qabul qilinishi va mazkur farmonga ko'ra Respublika Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasining vazirlikka aylantirilishi, shuningdek,

Vazirlar Mahkamasining 2019-il 29-yanvardagi "O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va aholini jismoniy va ommaviy sportga jalb etish to'g'risida"gi, 2019-yil 13-fevraldagi, "2019-2023-yillar davrida O'zbekistonda jismoniy va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlarining qabul qilinishi mamlakatimizda ushbu soha ya'ni jismoniy tarbiya va sportning yangi bosqichda rivojlanishiga asos bo'ladi.

Shu o'rinda aytish kerakki yuqorida keltirilgan qaror va farmonlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlash to'g'risidagi PF-5712-sonli Farmoni, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori hamda Vazirlar mahkamasining 2019-yil 31-

dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi «Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 19-martdagi “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus” ni keng joriy etish chora-tadbirlari kabi bir qator qaror va farmonlar ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz “Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga bundan buyon ham katta ahamiyat beramiz. Yosh avlodimiz o‘rtasida sportni ommalashtirish maqsadida eng chekka tumanlarda bolalar va o‘smirlar sport maktablarini tashkil etamiz”, deb aytgan edilar.

Bu esa sport sohasidagi islohotlarni yanada chuqur va jadalroq olib borilishiga sabab bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni asosida umumta’lim maktablarida ommaviy sportni rivojlantirish; shuningdek uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bosh masala qilib qo‘yildi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki “Besh muhim tashabbus”ning ikkinchi yo‘nalishi sport sohasiga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib unda yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasidagi qobiliyatlarini namayon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish bosh maqsad sifatida belgilab qo‘yilgan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g‘oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo‘q” deb ta’kidlaganlar. Bu esa har bir sohaga innovatsion texnologiyalar asosida yondoshuvni talab etadi. Shu jihatni inobatga olib maqolamizda “Jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish” deb nomladik.

Shu boisdan xam qilinishu zarur ishlar qatoriga misol tariqasida:

-Jismoniy madaniyat darslarini tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llarini takomillashtirish:

- maktabda jismoniy madaniyat darslarini tashkil qilishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini nazariy, amaliy va pedagogik asoslarini tadqiq etish;

- jismoniy madaniyat darslarini tashkil qilishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini aniqlash;

- jismoniy madaniyat darslarini tashkil qilishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish;

- jismoniy madaniyat darslarini tashkil qilishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini tahlil qilish.

So'z o'rnida aytishimiz joizki yurtimizda yashayotgan xar bir shaxs nafaqat Jismoniy tarbiya balkim boshqa soxalarda xam yurt ravnaqiga o'z xissasini qo'shishimiz shatrdir.